

2025-yil, 30-noyabr, 20(66)-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

HAR BIR DAQIQANI G'ANIMAT BILIB,
IJODKORLIK VA VATANGA MEHR BILAN YASHANG.
FARZANDLARI BILIMLI, ISTE'DODLI, O'ZINING
KUCHI VA SALOHİYATIGA ISHONIB, OLDINGA INTILIB
YASHAYDIGAN XALQ VA DAVLATNING ISTIQBOLI,
ALBATTA, YORUG' BO'LADI!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti





DOLZARB MAVZU

“MAORIF VA O'QITG'UVCHI” JURNALIDA ADABIYOT MATERIALLARI

Annotatsiya: maqolada 1925-1933-yillarda faoliyat yuritgan “Maorif va o'qitg'uvchi” jurnali borasida so'z boradi va unda chop etilgan adabiyot materiallari tasnif etiladi. Shuningdek, jurnalning o'z davrida tutgan o'rni haqidagi fikrlar, adabiyot materiallarining tahlili berildi. Jurnalning tuzilishi haqida to'plangan ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so'zlar: *matbuot, jurnal, “Maorif va o'qitg'uvchi”, adabiyot manba, tasnif, millat, ma'rifat.*

Annotation: the article discusses the journal “Maorif va o'qitg'uvchi” (Education and Teacher), which operated in 1925-1933, and classifies the literary materials published in it. Also, opinions on the role of the journal in its time, an analysis of literary materials are given. Collected information about the structure of the journal is presented.

Key words: *press, journal, “Maorif va o'qitg'uvchi”, literary source, classification, nation, enlightenment.*

Аннотация: в статье рассматривается журнал «Маориф ва о'қитгу'учи» («Просвещение и учитель»), выходивший в 1925–1933 годах, и классифицируются опубликованные в нём литературные материалы. Приводятся мнения о роли журнала в своё время, анализ литературных материалов. Представлены обобщённые сведения о структуре журнала.

Ключевые слова: *пресса, журнал, «Маориф ва о'қитгу'учи», литературный источник, классификация, нация, просвещение.*

Kirish. Milliy matbuotimiz tarixi va mualliflari faoliyati haqida davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng muayyan darajada tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, “Taraqqiy”, “Samarqand”, “Sadoiy Turkiston” gazetalari, “Oyna”, “Al-Isloh” jurnallari faoliyati o'rganildi. Ammo XX asr boshlarida millat manfaatlarini himoya qilgan, mahalliy aholini milliy o'zligini anglashga tashviq etgan, umuman, milliy ma'naviyatimiz va adabiyotimiz rivojiga katta hissa qo'shgan “Maorif va o'qitg'uvchi” jurnalining adabiyot manba sifatidagi ahamiyati monografik tarzda o'rganilgan emas. Zero, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi” [<https://www.xabar.uz/madaniyat.2018.7-avgust.1>] deganda xuddi shu jurnal haqida so'zlayotgandek go'yo.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). XX asr boshlarida millat ziyolilariga taraqqiyotda yangilik yaratishi, xalqni savodli qilish va millatni ilm nuri ila yoritish uchun matbuot minbar vazifasini bajardi. Fitrat so'zlari bilan aytganda: “Ijtimoiy xastaliklarimizga davo izlovchilar jadidlar yangilik tarafdorlaridir. Jadidlar, yangilik tarafdorlari: millatimiz, xalqimiz bu darajada tuban qoluvlariga, shu martabada yomon kunlarga tushuvlariga nodonlig'lari sabab bo'ldi, bizning uchun o'quv, ilm-ma'rifatga yopishuv lozim, vatanimiz, mamlakatimiz va millatimiz ilm nuri birla yoqtursun, din ham dunyo ilmlari birla jihozlansun”[2: 4].

Turkiston ziyolilari o'rtasida yakdillikni vujudga

keltirish, barcha ijodiy kuchlarni o'z atrofiga to'plash uchun matbuot organi kerak edi. Shu sababli “Oyna” (1913-1915), “Inqilob” (1922-1924), “Al-Isloh” (1915-1918), “Al-Izoh” (1917-1918), “Kengash” (1917-yil), “Hurriyat” (1917-yil) jurnallari, ulardan keyin “Yangi yo'l”, “Yer yuzi”, “Alanga”, “Maorif va o'qitg'uvchi”, “Bilim o'chog'i” kabi adabiy-badiiy jurnallar yuzaga keldi. Bu davrda mahalliy ziyolilar ta'lim-tarbiyaviy, tashkiliy va mafkuraviy ishlarini yo'lga qo'yishga kirishdilar. Bu sohada matbuot juda zarur edi. 1925-yilda O'zbekistonda umumiy tiraji 92 ming nusxa bo'lgan 24 nomda gazeta va 22 nomda jurnal chop qilinib turdi [3:305].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbekiston jumhuriyati Maorif xalq komissarligi tomonidan 1925-yil mart oyidan Toshkentda chiqa boshlagan oyda bir marta chop etilgan “Maorif va o'qitg'uvchi” jurnali ijtimoiy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy, adabiy, ilmiy, fanniy va rasmiy jurnal bo'lib, xalq ommasini savodli qilish, ongini o'stirish, turmush farovonligi darajasini ko'tarish, xotin-qizlar ozodligi, adabiyotshunoslik va tilshunoslik muammolari hamda bir qator hayotiy masalalarni, madaniyatimizdagi yangiliklarni yoritishdek ulkan vazifani o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Jurnal Toshkentdagi O'zbekiston Davlat nashriyotining 1-matbaasida chop etilgan. U 1925-yil kichik hajmda bir ustunlik va 160 sahifalik bo'lib, 1926-yildan esa katta hajmli va ikki ustunlik bo'lib, 38, 40, 44, 50, 54, 58, 62, 64, 66, 70,

72, 74, 78, 80, 98 sahifalik bo'lib chiqqan. Jurnalning 1929-yil 4-sonidan boshlab 60%, 11-sonidan esa 100% lotin yozuviga o'tgan. Jurnal 1926-yildan boshlab Samarqandda chiqqan. 1933-yilda jurnal o'z faoliyatini tugatgan.

Jurnal ruknlariga e'tibor qilsak, asosiy qismini adabiy materiallar tashkil etadi. "Tarjimai hol" ruknida taniqli ijodkorlar tarjimai holi, "Adabiy taftishlar" ruknida esa yubileyi nishonlanadigan adiblarga bag'ishlangan maqolalar va tarjima asarlar, "Tanqid va kitobiyot" ruknida tanqidiy maqolalar, chet el ijodkorlari tomonidan yozilgan turkum asarlar, "Adabiyot" va "G'arb adabiyoti" ruknida nazmiy asarlar va hikoyalar berib borilgan. Jurnalda chop etilgan adabiyot materiallari jurnalning asosiy qismini tashkil etgan. Ularni shu tartibda ko'rsatish mumkin.

Jurnalda chop etilgan she'rlarni mavzusiga ko'ra quyidagicha tasnif etish mumkin:

a) ma'rifiy she'rlar: "Yosh ishchilarga" (N.Rahimiy), "Istash" (Cho'lpon), "Erk nima?", "Turmushmi bu?" she'rlari (Elbek), "Adabiyot" (Botu), "Yigirmanchi asr" (Gulbek), "Oy" (Rashid Abdulla).

b) Ijtimoiy-siyosiy she'rlar: "Qutlash" (Oltoy), "Tutqun qizg'a" (Gulbek), "Ozod xotun so'zi" (Botur), "Kurash" (Botu), "Oktabr arafasida" (Abdulla Alaviy), "O'n bir yil" (N.Rahimiy), "Dengiz" (Mirtemir), "Erk yo'lida" (Muzayana Alaviya), "Yorug' yulduz" (Ibrohim Usmoniy).

d) Maishiy mavzudagi she'rlar: "Kimdan o'rganding dedingiz" (Bektosh), "Ish" (N.Rahimiy), "Qizlar o'yini" (Oydin), "Dehqon o'g'li" (Bonur), "Cho'pon" (Elbek).

e) Tabiat va muhabbat mavzusidagi she'rlar: "Tong", "Yog'ochlar, ko'katlar" (N.Rahimiy), "Oqshom" (Bektosh), "Bahor" (Uyg'un), "So'nggi muhabbat" (Sh. Sulaymon), "Yozgi tong" (Mirtemir), "Bahor oqshomi" (Qosimjon Hoshim), "Dala qizi" (Siddiq Salim), "Bahor" (Rukniddin), "Tong" (Yog'du) kabilar.

Jurnalda jami 5454 misra she'r chop etilgan bo'lib, shundan, ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan 92 (1996 misra)ta she'r va 23 ta hikoya matni tabdili amalga oshirilib, ilmiy istifodaga olib kiritildi. 1925–1926-yillarda chop etilgan she'rlarning tuzilishi juda tartibsiz. Bitta she'rning har bir bandi har xil misralardan tashkil topgan, to'rtlik, oltilik, sakkizlik, hattoki o'n yettilik, yigirma birlik kabilar. 1927-yildan she'rlarning bandlari tartibga solib borilgan, to'rtlik, oltilik shaklida. 1928-1929-yillarda bosilgan she'rlar shakl va mazmun jihatdan ancha mukammallashtirildi.

"Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalini nashr etish jarayonida nasriy asarlar ham davr ruhidan kelib chiqib, ma'lum darajada saralangan va shundan so'nggina

o'quvchilar e'tiboriga havola etilgan. Nasriy asarlarda ham nazmiy asarlarda bo'lgani kabi badiiylardan ko'ra ijtimoiylik ustunlik qiladi. 1927-1929-yillarda chop etilgan hikoyalarda o'lkada kechayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealar badiiy lavhalarda hikoya qilinadi. Jurnalda berilgan nasriy asarlar hikoya, hikoyat, roman, ertak, qissa kabi janrlardadir.

O'z navbatida jurnalda chop etilgan nasriy asarlarni mavzusiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

a) Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi nasriy asarlar: "Qishloqqa sayohat" (Elbek), "Lolaxon" (Yashin), "Uzun quloq" (Muallif Sitin, tarjimon Boyish), "Baxtsiz bir ko'rinish" (Muallif A.Barbiyus, tarjimon Uchqun), "Bog'olon sirlari (imzosiz)", "O'zgarish" (Somoni), "Qulbobo yoki ikki ozod" (S.Ayniy).

b) Ma'rifiy mavzudagi nasriy asarlar: "Shifoli suv" (Mahmud Subaev), "Omonat", "Chin va yolg'on" (M. Suboy), "Mirob" (Muallif Yelena Zart, tarjimon Boyish), "Chulniqon" (Ruschadan Rahim Ali tarjimasida), "Aldangan qiz" (Mahbuba Rahim qizi), "Qo'rqinch dalasi" (Muallif Beltenev, tarjimon Jo'raboev), "Intiqom" (Muallif Rulav Xan, tarjimon Amalaxonim).

Mazkur nasriy asarlar ichida ma'rifiy mavzudagi hikoya va hikoyatlar alohida ahamiyatga ega. Xususan, "Shifoli suv" hikoyasida ayollar oilada og'ir-bosiq va shirin so'z bo'lsa, oila farovon bo'lishi aytilsa, "Omonat" hikoyasida esa omonatga xiyonat qilmaslik fazilati yoritiladi. "Aldangan qiz" hikoyasida qizlarning soddaligi, ishonuvchanligi kelajakda ayanchli ahvolga tushishiga sabab bo'lishi uqtiriladi.

"Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida 32 ta tarjima asar berilgan bo'lib, bular asosan, rus tilidan tarjima qilingandir. Jumladan, "Xun-chi-fu", "Qo'rqinch dalasi", "Mirob" hikoyalari jurnalxonni o'ziga maftun etgan. Ayniqsa, Cho'lponning Thokur ijodi borasida olib borgan tadqiqotlari, ("Suba" asari, Thokur she'rlari) XX asr adabiyoti tarjimachilik taraqqiyoti rivojida muhim ahamiyatga ega. Bu tarjima asarlar orqali rus, xitoy, hind va boshqa xalqlar adabiyoti ma'lum darajada o'zbek o'quvchilariga tanishtirib borilgan.

Jurnalda bosilgan adabiy-tanqidiy maqolalar ham adabiy manba sifatida qimmatlidir. Maqolalarda o'z davridagi adabiy jarayonga, yangi asarlar yutuq va kamchiliklariga, umuman asarning badiiy saviyasi, imlo va tilida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarga baho beriladi. Mazkur tanqidiy maqolalarning yozilishida ba'zi bir qusurlar bo'lsa-da, 20-30-yillardagi fikrlar xilma-xilligini o'rganishda ilmiy qiymatga ega.

Jurnalda ilmiy asarlar ham berilgan. Bu asarlar jurnalning "Adabiy taftishlar", keyinchalik "Adabiy tekshirishlar va tarjimai hol" bo'limida berilgan bo'lib,

o'zbek va jahon adabiyotining taniqli ijodkorlari, qozilar, rahbar xodimlari haqida muayyan darajada ma'lumot beradi. Ularning hali fanga unchalik ma'lum bo'lmagan hayoti va ijodidan ma'lumotlar berib borilgan. Jumladan, Navoiy, Miriy, Turdi Farog'iy, Ahmad Yassaviy, Qozikalon Shal, Shekspir kabi ko'plab ijodkorlar buning dalilidir. Masalan, A.Zohiriyning 1927 yil 1-, 2-qo'shma sonida nashr etilgan Navoiy haqidagi "Navoiyning yubileyi va tarjimai holig'a yangi bir sahifa" sarlavhali maqolasida Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroning Navoiy hajga borishi masalasida yozishgan forscha maktubini ilm ahliga ma'lum qilishi kabilardir.

Ilmiy asarlarni quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. O'zbek va chet el ijodkorlarining tarjimai holiga oid ilmiy maqolalar. 2. O'zbek va chet el ijodkorlarining asarlari tahliliga bag'ishlangan ilmiy maqolalar.

Jurnalning adabiy manba sifatidagi qimmatini ko'rsatadigan yana bir jihat, bugungi kungacha tabdil qilinib, ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan asarlarning chop etilishidir. Ba'zilaridan namuna keltiramiz. Jumladan, Elbekning she'riy to'plamlarida

uchramaydigan "Sham" [4:75] she'ri jurnalning 1925-yil 11-, 12-qo'shma sonida "Adabiyot" bo'limida berilgan. Shoir she'rda sham atrofga yorug'lik taratib, ko'ngillarni xushnud etishini, ammo o'zi erib bitishini tasvirlaydi. Albatta, sham shu davr fidoyilari ramzi bo'lib, she'r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Shodlig'imdan chiroq tomon boqdim,
Eh essiz, borlig'img'a o't yoqdim,
Sham yonib yog'dular sochar erdi,
Ko'ksini g'am sori ochar erdi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Xullas, "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali badiiy, adabiy, ma'rifiy, publitsistik materiallari bilan XX asr o'zbek adabiyoti, madaniyatini boyitdi. Millat ziyolilarini hayotni chuqur idrok etishga, murakkab, ziddiyatli hodisalarni mohirona aks ettirishga da'vat etdi. "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali o'zbek mumtoz adabiyoti hamda folklorini keng targ'ib qildi.

Umuman olganda, XX asr 20-yillaridan nashr etilib boshlagan "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalidagi adabiy materiallar milliy adabiyotimizni o'rganishda adabiy manba sifatida qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi / Xalq so'zi. – Toshkent, 2017, 4-avgust. <https://www.xabar.uz/madaniyat>. 2018. 7-avgust.
2. A.Fitrat. Johilona mutaassibga misol. /Xalq so'zi, 1991-yil, 13-dekabr.
3. T.N.Qoriniyozov. Sovet O'zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar. – T.: Fan, 1956, 305-bet.
4. Elbek. Sham. //Maorif va o'qitg'uvchi. 1925. №11-12. 75-bet.
5. "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali, 1925-yil, mart, 1-son.
6. "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali. 1925-yil. Sentabr. 4-son. 78-bet.
7. "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali. 1925-yil. Dekabr-yanvar. 11-12-son. 75-b.
8. "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali. 1929-yil. Iyun. 5-6-son. 67-bet.